

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida
UO‘K: 330.101.542 (575.1)**

MAMATOVA FERUZA XOLBEKOVNA

**O‘ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI
RAG‘BATLANTIRISH YO‘LLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.02 – Makroiqtisodiyot

**Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: Berkinov Bazarbay Berkinovich
Iqtisod fanlari doktori, professor**

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-bob. IQTISODIY O‘SISHNING NAZARIY – USLUBIY ASOSLARI VA MUAMMOLARI.....	15
1.1 Iqtisodiy o‘sh nazariyalari evolyusiyasi.....	15
1.2 Barqaror iqtisodiy o‘sh va uni rag‘batlantiruvchi gender omillari.....	26
1.3 O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘shni rag‘batlantirish uslubiyoti.....	37
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	47
2-bob. O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY O‘SISH VA GENDER TENGLIGI OMILLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	49
2.1 O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari dinamikasi va gender tengligi omillari tahlili.....	49
2.2 Iqtisodiy o‘shni ta‘minlashda ayollar va erkaklarni ish bilan bandligi natijalari.....	58
2.3 Gender tengligi strategiyasida ayollar va erkaklar tadbirkorligi va mehnat unumdorligi samaradorligi.....	74
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	82
3-bob. O‘ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA GENDER TENGLIGI OMILLARINING EKONOMETRIK MODELLARI VA PROGNOZ.....	84
3.1 Barqaror iqtisodiy o‘shni rag‘batlantirishning xorijiy tajribalari.....	84
3.2 Iqtisodiy o‘sh va gender tengligi bog‘liqligini ko‘p omilli ekonometrik modeli.....	96
3.3 Gender tengligini ta‘minlash orqali barqaror iqtisodiy o‘shga erishishning ustuvor yo‘nalishlari.....	114
Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	130
XULOSA.....	132
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	138
ILOVALAR.....	147

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish yo'llarini takomillashtirish mamlakatlarning uzoq muddatli raqobatbardoshligi, makroiqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligini ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Barqaror o'sishni ta'minlashga qaratilgan samarali institutlar, tarkibiy islohotlar, "yashil" investitsiyalarni rag'batlantirish, inson kapitaliga sarmoya va innovatsion faollikka ko'maklashish kabi ustuvor yo'nalishlar ushbu jarayonning iqtisodiy mexanizmini belgilab beradi. So'nggi o'n yillikda barqaror iqtisodiy o'sish va gender tengligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi jahon iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyotida muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bir qator xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlarda gender tengligi iqtisodiy rivojlanishning inklyuziv omili sifatida baholanmoqda¹. Mazkur yondashuvlarga ko'ra, ayollar va erkaklar o'rtasida teng imkoniyatlarning ta'minlanishi mehnat resurslaridan samarali foydalanish, innovatsion salohiyatni kuchaytirish va inson kapitalining sifatini oshirish orqali iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlaydi.

Jahonda hududlar miqyosida barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish yo'llarini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, ularda mintaqalarning tarkibiy o'zgarishlari, milliy va mahalliy siyosat o'rtasidagi uyg'unlik hamda resurslardan barqaror foydalanish masalalari kompleks yondashuv asosida o'rganilmoqda. Mazkur yo'nalishdagi izlanishlar, asosan, hududlarning investitsiyaviy va innovatsion salohiyatini oshirish, "yashil" va raqamli iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ish o'rinlarini ko'paytirish, institutsional muhit va boshqaruv sifatini yaxshilash hamda infratuzilmaviy loyihalar samaradorligini baholash kabi ustuvor yo'nalishlarga qaratilgan.

¹ BMT (2019). 2019: Yil yakunlari. Nyu-York: Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nashriyoti. Jahon Banki (2020). Ayollar, Biznes va Qonun 2020. Vashington, DC: Jahon Banki. OECD (2021). Ijtimoiy Institutlar va Gender Indeksi (SIGI) 2021. Parij: OECD Nashriyoti. WEF (2022). Global Gender Tafovuti Hisoboti 2022. Jeneva: Jahon Iqtisodiy Forumi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (2020). XMT Monitori: Covid-19 va Mehnat Olami. Jeneva: XMT.

O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish yo‘llarini takomillashtirish, avvalo, iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiya qilish, hududlar o‘rtasidagi tengsizlikni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va yangi qiymat zanjirlarini yaratishga qaratilgan institutsional va makroiqtisodiy islohotlar tizimi sifatida namoyon bo‘lmoqda. “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi doirasida soliq-byudjet siyosati, investitsiya va biznes muhitini yaxshilash, hududiy sanoat va infratuzilmaviy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini milliy rivojlanish modellariga integratsiya qilish ustuvor vazifa etib belgilangan. “Rasmiy davlat dasturlarida “yashil o‘zgarish” va “yashil iqtisodiyotga o‘tish” chora-tadbirlari milliy raqobatbardoshlikni oshirish, resurslarni tejash va aholi turmush sifatini yaxshilashning asosiy drayveri sifatida ko‘rilayotgani barqaror iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishda yangi iqtisodiy mexanizmlar ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi”². Shuning uchun mamlakatda shakllangan rag‘batlantiruvchi muhit sifatini iqtisodiy rivojlanishga hamda tarkibiy va institutsional o‘zgarishlarni iqtisodiy o‘shishga ta‘sirini baholash, barqaror iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiruvchi omillar va mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish o‘ta dolzarb va yangi O‘zbekiston strategiyasida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalarni yechish uchun zarur hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF–16-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF–37-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, Oliy Majlis Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ–297-IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” va

² <https://cis-legislation.com/document>

ushbu sohadagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" nomli ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiy o'sish nazariyalari rivojlanish evolyutsiyasi, uni konseptual asoslari, tartibga solish muammolari uzoq xorijiy mamlakatlar olimlaridan A.Smit, R.Solou, M.Keyns, D.Domar, F.Xarrodd, S.Kuznes, Y.Shumpeter, M.Porter, Ch.Kindlbergel, A.Lyuis, E.Denison, D.Nort, O.Uilyamson va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan³. Yaqin xorijiy davlatlar olimlari E.V.Xarchenko, A.A.Poroxovskiy, A.Illarionov, K.A.Xubiyev, E.I.Lavrov, E.A.Kapoguzov, A.Belyanova va boshqalar iqtisodiy o'sishning ilmiy metodologik jihatlari hamda tadqiqot usullari bo'yicha taklif va tavsiyalarni asoslashgan⁴.

O'zbekistonda bozor munosabatlari shakllanishi va rivojlanishi sharoitida iqtisodiy o'sishning nazariy jihatlari va amaliy muammolari Q.X.Abduraxmonov, A.V.Vaxobov, G.Q.Abduraxmonova, B.B.Berkinov, S.V.Chepel, H.Abdulqosimov,

³ A.Smith Inquiry into the nature and causes of the wealth of nations, 1922; P.Солоу Перспективы теории роста. – М.: МЭ и МО, 1996, 8-изд.; М.Кейнс. Общая теория занятости, процента и денег // Перевод, с англ. – М.:2005.; Е.Домар Очерки по теории экономического роста. – МЭ и МО, 1956.; Ф.Харрод К теории экономической динамики. Ч. 1,2. М.: Экономика, 1997. - 416 стр; С.Кузнец Современный экономический рост: уровень, структура, распространение (Modern Economic Growth: Rate, Structure and Spread, 1966); Й.Шумпетер теория экономического развития. Пер.с.англ. – М.: 2005-260 с; М.Porter, Competitive Advantage of Nations. New York: Free Pres, 1990. 1990 (2nd.yed.New York: Free Pres, 1998).; Charles P. Kindleberger Economic Growth in France and Britain, 1851-1950-Harvard University Press (1964); Льюис А. Теория экономического роста. – М.: Прогресс, 1955; Edvard F.Denison. trends in American Economic Growth, 1929-1982. Washington: The Brookings Institution, 1985. P.30.; D.North The Economic Growth of the United States, 1790–1860, Prentice Hall, 1961; О.Уильямсон Экономические институты капитализма. С-Пб., 1996, с. 71-76.

⁴ Е.В.Харченко Государственное регулирование национальной экономики: учебное пособие. – М.: КОНРУС, 2011. -328с.; А.А.Пороховский Экономический рост развитие: теоретико – методологический подход. М: Экономический факультет МГУ, ТЕИС, 2004. С. 14. Илларионов, А. Размеры государства и экономический рост / А.Илларионов, Н.Пивоварова. - Текст: непосредственный // Вопросы экономики. – М., 2002. - № 9; Хубиев К.А, Теоритические и практические вопросы экономического роста // Экономический рост и вектор развития современной России / Под ред. К.А.Хубиева. – М.: Экономический факультет МГУ, ТЕИС, 2004. 27 с. Лавров Е.И., Капогузов Е.А, Экономический рост: теории и проблемы: учебное пособие. – Омск: Изд-во Омгу, 2006. С 11; А.М.Белянова Экономический рост в свете прошлого и настоящего // Экономический рост и вектор развития современной России / под ред. К. А. Хубиева. – М., 2004. – С. 184-192.

Sh.Sh.Shodmonov, U.V.G'afurov, N.M.Maxmudov, O.Xakimov, M.T.Asqarova, M.A.Mamatov, U.A.Madraximov va boshqalar tomonidan o'rganilgan⁵.

Shu bilan bir qatorda xorij olimlari tomonidan makroiqtisodiy barqarorlik, jamiyatda gender tenglikni ta'minlash va ayniqsa uning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganish muammosini turli nazariy yo'nalishlarda ko'rib chiqilgan. Xususan, gender masalalarining turli jihatlari, jumladan, aholi bandligi bilan o'zaro aloqadorlikda olib borilgan tadqiqotlar bir qator xorijiy olimlarining ilmiy merosida o'z aksini topgan. Jumladan, T.P.Schultz, M.Murzi, A.C.Guio, R.Barro, J.W.Lee, S.Seguino, E.King, M.A.Hill, J.Stiglitz, A.Sen, Fitoussi J.P., Kunal Sen, Boserup, Ester, Joshua Eastin, Aseyem Prakash⁶ va boshqa ko'plab tadqiqotchilarning ishlari bu borada muhim o'rin egallaydi.

MDH olimlaridan S.B.Bayzakova, R.Anker, E.V.Bazuyeva, M.B.Budayeva,

⁵ K.X.Абдурахманов Человеческое развитие [Текст]: учебное пособие / К.Х.Абдурахманов, Н.К.Зокирова; ФГБОУ ВПО «Российский экономический университет им. Г. В. Плеханова»; Н. К. Зокирова; под ред. Ю. Г. Одегова; ред. Ю.Г. Одегов. - М.: МАТТР, 2013. - 392 с. - Библиогр.: с. 384-391.; Vahobov A., Zaynitdinova U. Barqaror iqtisodiy o'sish omillari / Bozor, pul va kredit. -T.: 6/2011. 38-42 b; Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (to'ldirilgan va qayta ishlangan nashr) TDIU. -T.: Moliya-iqtisod, 2014. - 424 b.; Г.К.Абдураханова. Важнейший ресурс для экономического роста и развития. Демократизация и права человека – 2/2022.; Berkinov B.V. Национальная экономика: учебное пособие. ТГЕУ. – 583s.; Чепель С. Сценарии экономического развития Узбекистана на перспективу (условия, источники, ориентиры) // Экономический вестник Узбекистана. – Т.: 2003, №5. с.2-5; Abdulqosimov H. "Makroiqtisodiy tartibga solish va O'zbekistonning barqaror rivojlanishi. -Monografiya". – Т.: "Akademiya", 2011-y.; Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – Т.: "Fan va Texnologiyalar", 2005.491 –b. (-784 b.); N.M.Mahmudov, H.A.Hakimov. Iqtisodiy o'sish modellari va ulardan makroiqtisodiy tahlilda foydalanish yo'nalishlari. IQTISOD VA MOLIYA / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2016.; Asqarova M.T., Amirov L.F., Islomov A.A., Yaxshimuratova A.R. Inklyuziv iqtisodiy o'sish: O'quv qo'llanma. - T.: 2019.-234 b.; M.A.Mamatov. Iqtisodiy o'sish. O'quv qo'llanma. – Т.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021 – 6-b. (384 b.); Madraximov U. O'zbekistonda iqtisodiy o'sish sifatini oshirishning dolzarb masalalari. Monografiya. – Т.: PMTI, 2016. -194 b.

⁶ Schultz T.P. Human Capital, Family Planning and their Effects on Population Growth. Am. Econ. Rev. 1994, 84, 255–260.; Murthi M., Guio A.C.; Drèze J. Mortality, Fertility, and Gender Bias in India: A District-Level Analysis. Popul. Dev. Rev. 1995, 21, 745–782.; Barro R., Lee J.W. Sources of Economic Growth. Carnegie-Rochester Conf. Ser. Public Policy 1994, 40, 1-46.; Seguino S. Micro-Macro Linkages between Gender, Development, and Growth: Implications for the Caribbean Region. J. East. Caribb. Stud. 2008, 33, 8-42.; King E., Hill M.A. Women's Education in Developing Countries: An Overview. In Women's Education in Developing Countries: Barriers, Benefits and Policies; King, E.M., Hill, M.A., Eds.; Johns Hopkins University Press: Baltimore, MD, USA, 1993; pp. 1-50.; Stiglitz J., Sen A., Fitoussi J.P. Mismeasuring our Lives: Why GDP Doesn't Add up. Report of the Commission on the Measurement of Economic Performance and Social Progress. N.Y.; L.: New Press, 2010.; Кунал Сен. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Жахон тараққиёт иқтисодиёти тадқиқот институти. "Нега мен иқтисодий ўсиш ҳақида қайғуришим керак?" [The Effective States and Inclusive Development \(ESID\) Research Centre](#) on 12 January 2021. Boserup, Ester. 1970. Women's Role in Economic Development. New York: St. Martin's. Joshua Eastin, Aseem Prakash. Economic Development and Gender Equality: Is There a Gender Kuznets Curve? World Politics, 2013-yil, 65-jild, 1-son, 156–186-betlar.

M.L.Butovskaya, I.E.Kalabixina, Z.A.Xotkina, O.A.Zenkova⁷ kabi bir qator tadqiqotchilar gender tengsizlikning umumiy muammolari va metodologiyasi, gender tengsizlik va mehnat bozori, gender iqtisodiyoti va institutsional rivojlanish, raqamli iqtisodiyot va gender muammolari, uy xo‘jaligi mehnati va gender rollari bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Tadqiqot ishiga doir o‘zlarining nazariy hamda amaliy tadqiqotlarini olib borgan o‘zbekistonlik olimlardan T.Narbayeva, G.O.Ochilova, G.M.Musaxanova, R.J.Karajanova, F.V.Sugarova, U.Yuldosheva, N.X.Alimov, D.X.Ismailova, M.K.Tulaganova, S.Nazarova, N.M.Egamberdiyeva, D.Alimjonovalar⁸ gender tenglik siyosati va institutsional rivojlanish, mehnat bozori va gender omili, gender va fuqarolik jamiyati kabi mavzularni tadqiq etishgan.

Shu bilan bir qatorda iqtisodiy o‘sishning ilmiy-nazariy va amaliy muammolariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, uni

⁷ Байзакова С.Б. Прикладные инструменты системного анализа динамики индикаторов. Под общ-ред. А.Р.Жусупбековой – караганда: Изд. КарГУ, 2008., - 87 с.; Анкер Р. Теории профессиональной сегрегации по признаку пола: аналитический обзор / Р. Анкер // Гендер и экономика: мировой опыт и экспертиза российской практики. - Москва: ИСЭПН РАН - МЦГИ - «Русская панорама», 2002. - С. 299-328.; Базуева Е.В. (2010). Гендерная экономика-новое направление фундаментальной экономической теории. Экономическая наука современной России, (3 (50)), 51-64. Базуева Е.В. (2010). Человеческий капитал Пермского края: гендерные особенности реализации. Экономика региона, (2), 46-59.; Будаева М.Б. Особенности гендерных отношений в альтернативных экономических системах: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.01 / М.Б. Будаева. - Санкт-Петербург, 2007. - 22 с.; Бутовская М.Л. Антропология пола / М.Л. Бутовская. - 2013. -Издательство «ВЕК 2». - URL: http://elementy.ru/lib/432080?page_design=print (дата обращения 04.07.2019).; Калабихина И.Е. (2011), Почему важно развивать институты гендерного равенства в России. Научные исследования экономического факультета, 30); Хоткина З.А., Доброхлеб В.Г., Русанова Н.Е. (2018). Гендерные проблемы в России и методология их анализа. Народонаселение, (4), 135-149.; Зенкова О.А. Гендерная асимметрия как фактор карьерного роста женщин / О.А. Зенкова // Современные проблемы экономики и менеджмента: материалы международной научно-практической конференции. – Воронеж: «Истоки», 2019. – С. 109–113.

⁸T.Narbayeva, N.Egamberdiyeva, X.Saydivaliyeva, S.Alimov. “Genderga oid audit o‘tkzish metodologiyasi” [Matn]: uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2023. – 128 b.; Очиллова Г.О., Мусаханова Г.М. (2019). Гендерные аспекты семейного бизнеса в Узбекистане. Проблемы науки, (4 (40)), 87-89. Каражанова Р.Ж. (2024). Совершенствование механизмов, обеспечивающих достижение гендерного равенства в Узбекистане. Science and innovation, 3(Специал Иссуе 15), 545-549. Сугарова Ф. В. (2012). Оценка состояния женского предпринимательства в Республики Узбекистан. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (2), 119-122. Йулдошева У. Гендерные аспекты развития социального предпринимательства в Узбекистане. Марказий Осиёда Жамият, Гендер ва Оила, 25. Алимов Н.Х. (2024). Гендерная справедливость и гендерная стратегия нового Узбекистана. Science and innovation, 3(Специал Иссуе 15), 158-167. Исмаилова Д.Х.К. (2024). Гендерное равенство в Узбекистане: вызовы и перспективы. Oriental renaissance: Innovative, yeducational, natural and social sciences, 4(10), 167-170. Тулаганова М.К., Назарова С. (2023), Вопросы гендерного неравенства на современном этапе развития общества. Academic research in educational sciences, 4(Periodical Collection 7), 134-138. Alimjonova D. Iqtisodiyotda gender jihatlar. Gender munosabatlar nazariyasi va amaliyotiga kirish. Ilmiy maqolalar to‘plami. T – 2007. 134-181-b.

barqaror o‘shishini ta’minlovchi omillar o‘zgarishiga, ayniqsa iqtisodiyotda ayollar mehnatining YaIMga qo‘shayotgan hissalarini o‘rganishga yetarli darajada e’tibor berilmagan. Ushbu holatlar milliy iqtisodiyotni yanada rivojlantirishning “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan yuqori iqtisodiy o‘shish sur’atlarini saqlab qolish bo‘yicha ustuvor vazifalarni tadqiq etish zaruriyati mazkur mavzuni tanlashga asos bo‘lib xizmat qildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilot yoki ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 6784-UZ-sonli “O‘zbekiston milliy innovatsion tizimini modernizatsiya qilish” (2021-2026-yy.) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘shishga gender omillari ta’sirini baholash va unda ayollar va erkaklarning teng ishtirokini ta’minlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlashda mehnat omili va gender disbalansining makroiqtisodiy ta’sir mexanizmlarining nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish;

O‘zbekiston mehnat bozoridagi tarkibiy o‘zgarishlar, ishchi kuchi taklifi va unga ta’sir etuvchi omillarni statistik tahlil qilish hamda ularning makroiqtisodiy barqarorlik ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro aloqadorligini aniqlash;

gender tengsizligining iqtisodiy o‘shish sur’atlariga ta’sirini ekonometrik modellar asosida baholash hamda ishchi kuchi salohiyatidan to‘liq foydalanish hisobiga yuzaga keladigan potensial YaIM o‘shishini prognozlash;

jahon iqtisodiyotida aholining iqtisodiy faolligini oshirish va mehnat unumdorligini yuksaltirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish hamda ularni milliy iqtisodiyot xususiyatlariga moslashtirish yo‘nalishlarini asoslash;

barqaror iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish maqsadida mehnat bozorini tartibga solishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish va iqtisodiy

samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti bo'lib O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash jarayonlari hamda ushbu jarayonda ishchi kuchi salohiyatidan (gender omilini inobatga olgan holda) foydalanish samaradorligini ifodalovchi iqtisodiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini barqaror iqtisodiy o'sishga ta'sir etish omillari, ularning samaradorligini baholash uslublari hamda amaliy model va ko'rsatkichlar tizimi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik guruhlash, qiyosiy va tizimli tahlil, ilmiy-mantiqiy umumlashtirish, iqtisodiy-matematik modellashtirish, ekonometrik tahlil hamda prognozlashtirish metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

inson kapitali va mehnat unumdorligini oshirish, tadbirkorlik muhitini rivojlantirish yo'li bilan barqaror iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda institutsional islohotlar va ijtimoiy me'yorlarni bir vaqtning o'zida o'zgartirish asosida gender tengligini ta'minlash orqali erishiladigan potensial imkoniyatlardan foydalanish taklifi asoslangan;

mehnat bozorida ayollar ulushi, ish haqi tafovutlari, ishbilarmonlik faolligi kabi omillar asosida ayollar va erkaklar mehnat unumdorligini barqaror iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasini baholash metodikasi va uni hisoblash algoritmi ishlab chiqilgan;

xotin-qizlar tadbirkorligida "Brikolaj" va "Gig-iqtisodiyot" tamoyillarini maxsus raqamli platforma asosida integratsiya qilish, genderga yo'naltirilgan investitsiya ekotizimi hamda "Milliy parvarish iqtisodiyoti fondi"ni shakllantirish orqali ayollar faolligini oshirish taklifi ishlab chiqilgan;

O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoq va sohalarida vaqt omilini inobatga olgan holda YaIMga ayollar va erkaklar mehnati unumdorligining ta'sirini ekonometrik modellar orqali miqdoriy jihatdan baholash asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqarish hajmi, ayollar va erkaklar mehnat

unumdorligining prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

gender tengligini baholash uslubini ishlab chiqish asosida O‘zbekistonda gender tengligi darajasi va uning iqtisodiy o‘shishga ta’siri ko‘rsatkichlarini tizimli monitoring qilish imkoni yaratilgan;

mehnat bozorida ayollar bandligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish asosida ayollar bandligini kengaytirish uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, masofaviy mehnatni rivojlantirish, kasbiy qayta tayyorlash dasturlari, oilaviy tadbirkorlikni rag‘batlantirish kabi aniq mexanizmlar taklif etilgan;

gender tengligini ta’minlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlari asoslanib, ayollarning iqtisodiy faoliyatdagi ulushini ko‘paytirish milliy daromadning barqaror o‘shishga qanday ta’sir ko‘rsatishi bo‘yicha amaliy hisob-kitoblar taqdim etilgan;

gender byudjetlashtirish, xotin-qizlarni iqtisodiy faoliyatga keng jalb etish, mehnat bozorida teng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan amaliy choralar to‘plamini ishlab chiqish asosida davlat siyosati va strategik hujjatlar uchun takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda amalga oshirilgan yondashuv va usullar, nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik ishonchlik intervalida tekshirilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va uslubiy takliflardan O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishning tegishli strategiyasini shakllantirish, gender tengligini ta’minlash orqali barqaror iqtisodiy o‘shishga erishishning amaldagi mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy apparatni boyitish, davlat tomonidan barqaror iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish

yo‘llarini takomillashtirishni tizimli qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan usullar va modellarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan amaliy tavsifdagi takliflardan barqaror iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish yo‘llarini shakllantirishga oid maqsadli davlat dasturlarini shakllantirish, oliy o‘quv yurtlarida “Makroiqtisodiyot”, “Makroiqtisodiyot-2”, “Makroiqtisodiy siyosat”, “O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi”, “Makroiqtisodiy tahlil” kabi kurslarning fan dasturlari, o‘quv qo‘llanma va darsliklarni takomillashtirish hamda o‘qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘shishga gender omillari ta‘sirini baholash va unda ayollar va erkaklarning teng ishtirokini ta‘minlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

inson kapitali va mehnat unumdorligini oshirish, tadbirkorlik muhitini rivojlantirish yo‘li bilan barqaror iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishda institutsional islohotlar va ijtimoiy me‘yorlarni bir vaqtning o‘zida o‘zgartirish asosida gender tengligini ta‘minlash orqali erishiladigan potensial imkoniyatlardan foydalanish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasi hamda Innovatsion rivojlanish agentligining amaliy faoliyatiga joriy etilgan (Byudjet va iqtisodiy masalalar qo‘mitasining 2025-yil 23-dekabrda 05/10799-son va Innovatsion rivojlanish agentligining 2025-yil 16-dekabrda 01-05/5292-son ma‘lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qabul qilinayotgan qarorlarning makroiqtisodiy ta‘sirini baholash, gender tenglik siyosati bilan barqaror iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish hamda parlament nazorati natijadorligini oshirish va xotin-qizlarni innovatsion tadbirkorlikka o‘qitish dasturlarini amalga oshirishga xizmat qilgan;

mehnat bozorida ayollar ulushi, ish haqi tafovutlari, ishbilarmonlik faolligi kabi omillar asosida ayollar va erkaklar mehnat unumdorligini barqaror iqtisodiy

o'sishga qo'shayotgan hissasini baholash metodikasi va uni hisoblash algoritmi bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalari qo'mitasining amaliy faoliyatiga joriy qilishga qabul qilingan (Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasining 2025-yil 23-dekabrda 05/10799-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida barqaror iqtisodiy o'sish samaradorligini oshirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

xotin-qizlar tadbirkorligida "Brikolaj" va "Gig-iqtisodiyot" tamoyillarini maxsus raqamli platforma asosida integratsiya qilish, genderga yo'naltirilgan investitsiya ekotizimi hamda "Milliy parvarish iqtisodiyoti fondi"ni shakllantirish orqali ayollar faolligini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-12-son qaroriga 5-ilova bilan tasdiqlangan "Yangi yondashuvlar asosida aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka jalb qilish hamda kambag'allikdan chiqarish bo'yicha "yo'l xaritasi"ning 28-bandi ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Innovatsion rivojlanish agentligining 2025-yil 16-dekabrda 01-05/5292-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda xotin-qizlarning rolini tizimli ravishda kuchaytirishga, norasmiy mehnatni rasmiy iqtisodiy faoliyatga integratsiya qilishga, xotin-qizlarni innovatsion tadbirkorlikka o'qitish dasturlarini amalga oshirish orqali kambag'allikni barqaror kamaytirishga xizmat qilgan;

O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoq va sohalarida vaqt omilini inobatga olgan holda YaIMga ayollar va erkaklar mehnati unumdorligining ta'sirini ekonometrik modellar orqali miqdoriy jihatdan baholash asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqarish hajmi, ayollar va erkaklar mehnat unumdorligining ishlab chiqilgan prognoz parametrlari bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2025-yil 18-martda "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining 2024-yilda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalarning ijrosi hamda 2025-yilda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-

tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi SQ–102-V-sonli qarori bilan tasdiqlangan "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini 2025-yilda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi"ning 26-bandi ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasining 2025-yil 23-dekabrda 05/10799-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida davlat dasturlari doirasida tarmoqlar kesimida mehnat unumdorligini oshirish, ayollar bandligini kengaytirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan qarorlarni ilmiy asoslashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiya natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta ilmiy anjumanlarda aprobatyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 136 betni tashkil etadi.